

TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AFZALLIKLARI

Axmedova Malika Turayevna*Buxoro shahar politexnikumi iqtisod
va biznes asoslari fani o'qituvchisi**M.t.axmedova@gmail.com***Annotatsiya**

Ushbu tezisda raqamli transformatsiya jarayonlarining ta'lim tizimiga ko'rsatayotgan ta'siri hamda ta'limni modernizatsiya qilishdagi o'rni tahlil qilinadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib, raqamli transformatsiya sharoitida pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish hamda innovatsion o'quv muhitini yaratish masalalari ko'rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalarni samarali integratsiya qilish ta'lim sifatini oshirish va tizimni xalqaro standartlarga moslashtirishning muhim omili ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, ta'lim tizimi, modernizatsiya, raqamli texnologiyalar, innovatsion ta'lim, raqamli kompetensiya.

O'zbekiston Respublikasi "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" da¹ zamonaviy darsliklar, o'quv uslubiy qo'llanmalar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, multimedia ilovalarini yaratish va ularni qo'llash kabi ustuvor vazifalar belgilab olingan. 2017-yil 30-iyundagi PQ-5099 sonli "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora tadbirlari to'g'risidagi" 2020-yil 2- martdagi PF-5953-sonli "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Farmonlari hamda 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-sonli "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi² qarori mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda raqamli texnologiyalar muayyan darajada xizmat qiladi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)– turli texnik va dasturiy vositalar bilan axborotga ishlov berish usulidir. Bunda birinchi navbatda, zarur dasturiy ta'minotga ega bo'lgan kompyuterlar va ma'lumotlar joylashtirilgan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF 5712-son farmoni.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi PF-5099 sonli "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora tadbirlari to'g'risidagi" Qarori

telekommunikatsiya vositalari e'tiborga olinadi.³ Bugungi kunda AKT kishi hayoti va faoliyatining hamma jabhalariga kirib borishi natijasida fan, texnika, davlat va iqtisodiyotning barcha sohaları rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Axborot kommunikatsion texnologiyalari bilim oluvchi, o'quvchi, talaba va tinglovchilarga dars berish va tarbiyalash jarayoniga faol ta'sir qiladi, chunki u ta'lim jarayonini va o'qitish metodlarini yetkazish sxemasini o'zgartiradi.

Ta'lim sohasi bu ilmiy texnik taraqqiyot yutuqlarini birinchi navbatda aks ettiradigan muhim sohalardan biri hisoblanadi. Ta'lim alohida davlatlar va butun insonlarning kelajagini ta'minlaydigan omil bo'lib xizmat qiladi, jamiyat taraqqiyotini jadallashtiruvchi va istiqbolini belgilovchi kuchdir. Keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim jarayonini elektron resurslar asosida takomillashtirish va o'quv jarayonini samaradorligini oshirishga kata ahamiyat berilmoqda. Shu bois zamonaviy elektron kurslarni yaratish va ta'lim jarayoniga tadbiiq etish ta'lim tizimini takomillashtirishning dolzarb muammosiga aylandi.⁴

S.X. Aliboyevning Interaktiv elektron ta'lim trenajyorlarini yaratish va undan foydalanish metodikasini takomillashtirish deb nomlangan dissertatsiya ishida kadrlarni tayyorlash jarayoniga interaktiv dasturiy vositalar, raqamli texnologiyalar, masovafiy ta'lim shakllari keng tadbiiq etish, ochiiq ta'lim resurslari, aralash ta'lim (online/offline) texnologiyalarini rivojlantirishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning dolzarb muammolarini ochiiq chiqqan. Shuningdek axborot kommunikatsiya texnologiyalari yutug'larini tadbiiq etish orqali ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, tahliliy natijalarini umumlashtirish hamda xulosalash mexanizmlarining amaliyoti alohida o'rin tutishi to'g'risida to'xtalib o'tgan.⁵ Dars jarayoniga elektron ta'limni joriy qilish, birinchi navbatda, jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, axborot ta'lim resurslarini ishlab chiqishga, ta'lim sohasining axborotlashuviga bog'liq. Dars jarayonining fanni ishlab chiqarish bilan integratsiyasi asosli mexanizmlarini yaratish, uni amaliyotga joriy qilish, o'qishni, mustaqil ta'lim olishni individuallashtirish, yangi pedagogik hamda innovatsion texnologiyalari va vositalari asosida elektron ta'limdan foydalangan holatda o'quvchilar ta'limini jadallashtirish ustuvor vaziflardan hisoblanadi. Dars jarayonini elektron ta'lim asosida tashkillashtirish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon qilishni takomillashtirish tamoyillariga bir muncha o'zgartirishlar kiritish kerak.

Ta'limda raqamli texnologiyalarning asosiy afzalliklari:

³ Qarshiyev A.A, Pardayev Sh.M "Umumiy o'rta ta'lim maktablari informatika darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish" Respublika ilmiy-texnik anjuman. 2015y 272-275 b

⁴ N.A. Fayziyev "Informatika va axborot texnologiyalari fanini multimediiya vositalari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish" PhD dissertatsiyasi

⁵ Aliboyev S.X "Interaktiv elektron ta'lim trenajyorlarini yaratish va undan foydalanish metodikasini takomillashtirish" dissertatsiya ishi-2021.

O'qitish jarayonining samaradorligini oshiradi, multimedia darslari (video, animatsiya, interaktiv testlar) o'quvchilarning mavzuni tezroq va chuqurroq tushunishiga yordam beradi, murakkab jarayonlarni vizual ko'rsatish orqali o'rganish osonlashadi, o'quvchi faolligini kuchaytiradi, Interaktiv platformalar (Kahoot, Quizizz, Google Classroom va boshqalar) o'quvchilarni darsga faol jalb etadi, gamifikatsiya (o'yinlashtirish) darslarni qiziqarli qiladi, mustaqil ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi.

Onlayn kurslar, elektron kutubxonalar va o'quv platformalari 24/7 rejimida ochiq. Masofaviy ta'limni ta'minlaydi. Internet orqali dars o'tish (Zoom, Google Meet) masofadan turib ham sifatli ta'lim olish imkonini beradi. Bulutli xizmatlar (Google Drive, OneDrive) guruh bilan ishlashni osonlashtiradi. Kompyuter savodxonligi, dasturlash, raqamli xavfsizlik kabi zamonaviy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshiradi, o'quvchi va o'qituvchi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, jarayonni qulay, tezkor va interaktiv qiladi. Zamonaviy ta'limni raqamlashtirish – innovatsion, samarali va har tomonlama foydali yo'nalishdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF 5712-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi PF-5099 sonli "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora tadbirlari to'g'risidagi" Qarori
3. Qarshiyev A.A, Pardayev Sh.M "Umumiy o'rta ta'lim maktablari informatika darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish" Respublika ilmiy-texnik anjuman. 2015y 272-275 b
4. N.A. Fayziyev "Informatika va axborot texnologiyalari fanini multimediya vositalari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish" PhD dissertatsiyasi
5. Aliboyev S.X "Interaktiv elektron ta'lim trenajyorlarini yaratish va undan foydalanish metodikasini takomillashtirish" dissertatsiya ishi-2021.